

## **Madaniy meros agentligida Korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari mavzusiga bag‘ishlangan amaliy seminar**

Joriy yil 25-iyul kuni Madaniy meros agentligida Korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari mavzusiga bag‘ishlangan amaliy seminar o‘tkazdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan yig‘ilishda Agentlikning markaziy apparat xodimlari bilan birga Zoom videokonferensiya dasturi orqali hududiy boshqarma xodimlari ham ishtirok etdilar.

Seminar O‘zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko‘tarish, zamonaviy va samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko‘rinishlariga qat’iy murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i Rashidova Barno “Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida davlat siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari mavzusida ma’ruza qildi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ijobiy yutuqlarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya ko'rinishlarining oqibati bilan kurashish emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabablarini bartaraf etish o'z samarasini beradi.

Shu bois, korrupsiyani oldini olish, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablarni chuqur tahlil qilish, korrupsion xavf-xatarlarni baholash, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini yaratish, davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligini oshirish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishni taqozo etadi.

Tadbir davomida, Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i B. Ismailov manfaatlar to'qnashuvi hamda odob-axloq qoidalari" mavzusida ma'ruza qildi.



Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar va kutilayotgan o'zgarishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

Ta'kidlanganidek, 2016-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 6 ta Qonun, 6 ta Prezident farmoni, 7 ta Prezident qarorlarini qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, unga barham berish uchun zarur sharoitlar yaratib berdi.



Seminar yakunida Agentlik xodimlari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.